O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Elektron to'lov tizimlarining takomillashuvi, internet tarmog'idan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi, raqamli platformalarning ko'payishi va tadbirkorlik subyektlarining elektron savdoga faol jalb qilinishi savdo xizmatlari bozorining ijobiy transformatsiyasini tezlashtirmoqda. Mazkur jarayon savdo korxonalarini yangi biznes modellarini joriy etishga va raqamli texnologiyalardan yanada samarali foydalanishga rag'batlantirmoqda.

Amaliyotda savdo xizmatlarini raqamlashtirish samaradorligini baholash tizimini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. An'anaviy yondashuvlarda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy natijasi asosan savdo hajmi yoki foydaning o'sishi orqali baholanib kelinmoqda. Ushbu tahlil ko'lamini kengaytirib, raqamlashtirishning xarajatlarni tejash, mehnat unumdorligi, mijozlar faolligi, raqamli savdo ulushi va investitsiyalarning qaytimi kabi muhim jihatlarni ham inobatga olish yuksak ijobiy natijalarni beradi. Shuning uchun, savdo xizmatlarini raqamlashtirish samaradorligini kompleks baholashga imkon beruvchi yagona metodik yondashuvni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Savdo xizmatlarini raqamlashtirish samaradorligini baholashda "xarajat–natija", ROI, mehnat unumdorligi, raqamli savdo ulushi va operatsion xarajatlarni tejash kabi alohida ko'rsatkichlardan foydalanish tajribasi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ushbu ko'rsatkichlarni kompleks tarzda o'zaro muvofiqlashtirib qo'llash orqali raqamlashtirishning umumiy iqtisodiy samaradorligini yanada to'laqonli va aniq ifodalashga erishiladi. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy, operatsion, mehnat, bozor va mijozlar samaradorligini o'zida mujassam etgan yagona integral ko'rsatkichni shakllantirish ilmiy jihatdan yuqori maqsadga muvofiqdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Savdo xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligi zamonaviy iqtisodiyotda raqamli transformatsiya, elektron tijorat, platformali biznes modellari va korxonalar unumdorligi bilan o'zviy bog'liqlikda tadqiq etilmoqda. Mavjud ilmiy va institutsional manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirishning iqtisodiy samarasi, eng avvalo, operatsion xarajatlarni kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, yangi bozor hamda mijozlar segmentiga chiqish, savdo hajmini kengaytirish va boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilash orqali namoyon bo'ladi.

OECD tadqiqotlarida korxonalarni raqamlashtirish samaradorlik, innovatsion faollik hamda raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili sifatida baholanadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar kichik va o'rta korxonalarga operatsion hamda tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, mijozlar qamrovini kengaytirish va biznes jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini berishi ta'kidlangan [1].

OECDning 2024-yildagi tadqiqotida raqamli vositalardan foydalanayotgan kichik va o'rta biznes subyektlari uchun asosiy iqtisodiy natijalar sifatida rentabellikning oshishi, ichki savdoning kengayishi, mijozlar qamrovining ortishi va avtomatlashtirish hisobiga unumdorlikning yaxshilanishi ko'rsatilgan [2].

Boshqa bir OECD tadqiqotida raqamli platformalarning savdo korxonalariga ta'siri alohida o'rganilgan. Unda onlayn platformalar kichik biznes subyektlariga yangi bozor va mijozlarga chiqish, logistika va ayrim biznes funksiyalarini outsorsing qilish, axborot almashinuvini yaxshilash hamda miqyos iqtisodiyotidan unumli foydalanish imkonini berishi qayd etilgan. Ayniqsa, tadqiqotlarda onlayn platformalardan foydalanish chakana savdo kabi xizmat ko'rsatish tarmoqlarida unumdorlikni sezilarli oshirishi ko'rsatilgan [3].



OECD *Digital Economy Outlook* tadqiqotlarida esa korxonalarning raqamli texnologiyalarni qabul qilish darajasi ularning hajmi bilan bog'liqligi ko'rsatiladi. Yirik korxonalar bulutli texnologiyalar, katta ma'lumotlar tahlili, IoT va sun'iy intellekt kabi texnologiyalarni kichik korxonalarga nisbatan tezroq joriy etmoqda [4].

2025-yilgi OECD tadqiqotida raqamlashtirish korxonalarga yangi bozorlarga chiqish va operatsion faoliyat samaradorligini oshirish orqali raqobatbardoshlikni kuchaytirishi qayd etilgan. Tadqiqotda raqamlashtirishning iqtisodiy natijasini baholash bilan bir qatorda raqamli yetuklik, sun'iy intellekt, *fintech* va raqamli xavfsizlik kabi omillar ham muhim o'rin tutishi ko'rsatiladi [5].

O'zbekiston sharoitida savdo xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy ahamiyati, avvalo, elektron tijorat bozorining jadal kengayishi bilan namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, elektron tijorat savdo hajmi 2016–2024-yillar oralig'ida 6,0 mlrd so'mdan 15 211,5 mlrd so'mga yetgan. Mazkur dinamika elektron savdoning mamlakat savdo tizimidagi iqtisodiy ahamiyati sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi [6].

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning institutsional asoslari "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi bilan mustahkamlangan. Mazkur strategiyada raqamli infratuzilmani rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarini raqamli transformatsiya qilish va raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [7].

Elektron tijoratning huquqiy va tashkiliy asoslari O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RQ–792-son Qonuni¹ bilan belgilangan. Mazkur qonun elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish orqali raqamli savdo xizmatlarining rivojlanishi uchun mustahkam huquqiy zamin yaratadi [8].

Shuningdek, O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha 2024-yil 26-dekabrda 885-son² Hukumat qarori qabul qilingan bo'lib, unda elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar belgilangan [9].

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining "Raqamli iqtisodiyot" bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar bazasida elektron tijoratda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat, elektron tijoratning YalMdagi ulushi, AKT savdosi va AKT xizmatlari kabi ko'rsatkichlarning alohida yuritilishi raqamli savdoning iqtisodiy natijalarini statistik jihatdan baholash imkoniyatlarini yanada kengaytiradi [10].

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda raqamlashtirishning unumdorlik, xarajatlarni kamaytirish, savdo hajmini kengaytirish, mijozlar qamrovini oshirish va raqobatbardoshlikka ta'siri yetarlicha asoslangan. Ushbu ilmiy izlanishlarni yanada boyitish maqsadida savdo xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligini moliyaviy, operatsion, mehnat, bozor va mijozlar samaradorligini yagona integral tizimda birlashtirib baholash masalasiga chuqurroq yondashish maqsadga muvofiqdir.

Shu jihatdan, mazkur tadqiqotning ilmiy yondashuvi mavjud metodikalarni yanada takomillashtirgan holda raqamlashtirish samaradorligini faqat elektron savdo hajmi yoki foyda o'sishi bilan cheklamay, balki xarajatlarni tejash, mehnat unumdorligi, raqamli savdo ulushi, investitsiyalar rentabelligi va mijozlar faolligini birgalikda hisobga olishga asoslanadi. Bu esa savdo korxonalarida raqamli transformatsiyaning haqiqiy iqtisodiy samarasini yanada aniq va mukammal baholash imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda savdo xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligini baholash uchun tizimli yondashuv, statistik tahlil, taqqoslama hamda indeks usullari, shuningdek, iqtisodiy-matematik va integral baholash metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasining asosiy maqsadi raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida savdo korxonalarida yuzaga keladigan moliyaviy, operatsion, mehnat hamda bozor samaradorligini kompleks baholashdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

Savdo xizmatlarini raqamlashtirish korxonalarning biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, mijozlar bilan o'zaro aloqalarni takomillashtirish, savdo kanallarini kengaytirish hamda operatsion xarajatlarni maqbullashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat hajmining keskin o'sishi ushbu jarayonning amaliy ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, elektron tijorat savdo hajmi 2016–2024-yillar oralig'ida 6,0 mlrd so'mdan 15 211,5 mlrd so'mga yetgan.

Mazkur o'sish savdo korxonalarida raqamli kanallardan foydalanish ko'lamini uzluksiz kengayib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, elektron savdo hajmining ortishi raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligini to'liq ifodalab bera olmaydi. Chunki korxona raqamli platformaga muayyan mablag' yo'naltirgan holda savdo hajmini oshirishi mumkin, biroq texnologik hamda marketing xarajatlarni to'g'ri maqbullashtirish orqali kutilgan iqtisodiy

1 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.09.2022 yildagi O'RQ-792-son <https://lex.uz/uz/docs/-6213382>

2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 26.12.2024 yildagi 885-son <https://lex.uz/uz/docs/-7282643>




naf va foyda darajasini yanada yuqorilattirish imkoniyati saqlanib qoladi. Shu sababli samaradorlikni “natija/xarajat” nisbatiga asoslangan kompleks ko'rsatkichlar orqali baholash maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijasida savdo xizmatlarini raqamlashtirish samaradorligini baholash uchun beshta asosiy yo'nalishni o'z ichiga oluvchi ko'rsatkichlar tizimi taklif etiladi (1-jadval).

1-jadval
Savdo xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligini baholash ko'rsatkichlari ³

Baholash yo'nalishi	Asosiy ko'rsatkich	Iqtisodiy mazmuni
Moliyaviy samaradorlik	ROI, foyda o'sishi, rentabellik	Raqamli investitsiyalarning moliyaviy natijadorligini namoyon etadi
Xarajat samaradorligi	Xarajatlarni maqbullashtirish va tejash	Avtomatlashtirish hisobiga tejalgan operatsion mablag'lar hajmini aniqlaydi
Mehnat samaradorligi	Savdo hajmi / xodimlar soni	Raqamlashtirishning mehnat unumdorligini oshirishga ta'sirini aks ettiradi
Bozor samaradorligi	Raqamli savdo ulushi	Korxonaning raqamli kanallar va platformalardan foydalanish darajasini ifodalaydi
Mijozlar samaradorligi	Takroriy xaridlar va mijozlar faolligi	Raqamli xizmatlarning mijozlar xatti-harakati hamda sodiqligiga ta'sirini baholaydi

Ushbu ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligi raqamlashtirishning iqtisodiy samarasi quyidagi zanjir asosida shakllanishini ko'rsatadi (1-rasm):



1-rasm. Savdo xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligi

Raqamlashtirishning bevosita iqtisodiy samaralaridan biri savdo operatsiyalarini bajarish xarajatlarini maqbullashtirishdir. Buyurtmalarni avtomatik qayta ishlash, elektron hisob-kitoblarni yo'lga qo'yish, omborni raqamli boshqarish hamda mijozlar bilan aloqalarni avtomatlashtirish operatsion jarayonlarni tezlashtirib, ma'muriy va qo'l mehnatiga bog'liq xarajatlarni sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi.

Raqamlashtirish jarayonining iqtisodiy samaradorligini belgilashda investitsiyalarning qaytimi eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Raqamli investitsiyalar rentabelligi (RI_r) quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$RI_r = \frac{\Delta F}{RI} \times 100 \quad (1)$$

Bu yerda:

- ΔF — raqamlashtirish natijasida olingan qo'shimcha foyda;
- RI — raqamli texnologiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi.

Amaliy misol: Savdo korxonasi elektron savdo platformasi, CRM tizimi hamda avtomatlashtirilgan ombor tizimiga 500 mln so'm investitsiya kiritib, buning natijasida yiliga 150 mln so'm qo'shimcha foydaga ega bo'lsa, investitsiya rentabelligi quyidagicha shakllanadi:

$$RI_r = 150 / 500 \times 100 = 30 \%$$

Demak, ushbu investitsiyaning yillik rentabelligi 30 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, investitsiya samaradorligini baholashda faqat ROI emas, balki sarmoyaning qoplanish muddati (*payback period*) ham inobatga olinishi ilmiy-amaliy jihatdan yuqori natija beradi.

Raqamli texnologiyalarning savdo korxonalari iqtisodiy samaradorligiga ta'sir ko'rsatadigan yana bir asosiy yo'nalishi mehnat unumdorligining oshishidir:



$$MU = \frac{S}{I} \quad (2)$$

Bu yerda:

- MU — mehnat unumdorligi;
- S — savdo hajmi;
- I — xodimlar soni.

Masalan, raqamlashtirish joriy etilishidan oldin bir xodimga 200 mln so'mlik savdo hajmi to'g'ri kelgan bo'lib, raqamli yechimlar tatbiq etilgach bu ko'rsatkich 280 mln so'mga yetgan bo'lsa, mehnat unumdorligi:

- $280 / 200 \times 100 = 140 \%$, ya'ni 40 foizga oshganligini ko'rsatadi

• ya'ni 40 foizga oshganligini ko'rsatadi. Bu holat raqamli avtomatlashtirish xodimlarni bir xildagi takrorlanuvchi operatsiyalardan ozod etib, ularning kuch-g'ayratini yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi strategik vazifalarga yo'naltirish imkoniyatini ta'minlashini ifodalaydi.

Alohida baholash ko'rsatkichlarini yagona tizimga birlashtirish hamda kompleks tahlilni amalga oshirish uchun Integral raqamli samaradorlik indeksi (IRSI) taklif etiladi:

$$IRSI = W_1 Z_1 + W_2 Z_2 + W_3 Z_3 + W_4 Z_4 + W_5 Z_5 \quad (3)$$

bu yerda:

- Z_1 - moliyaviy samaradorlik indeksi;
- Z_2 - xarajat samaradorligi indeksi;
- Z_3 - mehnat samaradorligi indeksi;
- Z_4 - bozor samaradorligi indeksi;
- Z_5 - mijozlar samaradorligi indeksi;

$W_1 - W_5$ - tegishli ko'rsatkichlarning vazn koeffitsiyentlari.

Ushbu indeksning ustunligi shundaki, u korxonaning raqamlashtirish darajasi va uning samarasini yaxlit bitta ko'rsatkichda ifodalash imkonini beradi. Shu bilan birga, indeks tarkibidagi har bir komponentni alohida tahlil qilish orqali samaradorlikning qaysi yo'nalishlarida o'sish yuqori ekanligini hamda qaysi sohalarni yanada optimallashtirish lozimligini aniq belgilab olish mumkin (2-jadval).

2-jadval
Integral raqamli samaradorlik indeksini baholash mezonlari⁴

IRSI qiymati	Samaradorlik darajasi	Tavsif
0,00–0,20	Juda past	Raqamlashtirishning iqtisodiy samarasi boshlang'ich bosqichda va optimallashtirishni talab etadi
0,21–0,40	Past	Raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lamini yanada kengaytirish imkoniyatlari mavjud
0,41–0,60	O'rta	Raqamlashtirishning barqaror iqtisodiy samaradorlik darajasi ta'minlangan
0,61–0,80	Yuqori	Raqamli transformatsiya jarayonlari korxonada sezilarli ijobiy natijalarni ko'rsatmoqda
0,81–1,00	Juda yuqori	Raqamlashtirish korxonaning maksimal iqtisodiy samaradorligini ta'minlamoqda

Taklif etilayotgan metodika mavjud an'anaviy baholash usullaridan quyidagi muhim jihatlari bilan farqlanadi:

• **Birinchidan**, raqamlashtirish natijasi faqat savdo hajmining o'sishi bilan cheklanib qolmay, balki xarajatlarni maqbullashuvi va foyda ko'rsatkichlarining o'zgarishi bilan birgalikda kompleks baholanadi.

• **Ikkinchidan**, mehnat unumdorligi alohida tarkibiy komponent sifatida hisobga olinadi. Bu esa raqamlashtirishning inson resurslaridan unumli foydalanish samaradorligiga ta'sirini aniq belgilash imkonini beradi.

• **Uchinchidan**, raqamli savdo ulushi bozor transformatsiyasi va korxonaning raqamli yetukligini ko'rsatuvchi muhim indikator sifatida kiritilgan.

• **To'rtinchidan**, mijozlar faolligi va sodiqligi bilan bog'liq ko'rsatkichlarning qamrab olinishi raqamlashtirishning uzoq muddatli barqaror tijoriy natijalarini bashorat qilish hamda baholash imkonini beradi.

• **Beshinchidan**, barcha ko'rsatkichlarni yagona integral indeksga birlashtirish orqali turli savdo korxonalarining raqamlashtirish samaradorligini o'zaro taqqoslash va qiyosiy tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

4 Muallif ishlanmasi



Shunday qilib, taklif etilayotgan metodik yondashuv ketma-ketligi savdo xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligini har taraflama va chuqur baholash imkonini ta'minlaydi (2-rasm).



2-rasm. Savdo xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash algoritmi⁵

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, savdo xizmatlarini raqamlashtirish zamonaviy savdo korxonalarining iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biridir. O'zbekistonda savdo xizmatlari bozori yuqori sur'atlarda rivojlanmoqda: 2025-yilda savdo xizmatlari hajmi 187 trln so'mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 13,8 foizga oshgan. 2026-yil yanvar–aprel oylarida esa savdo xizmatlari hajmi 101,8 trln so'mga yetib, yillik taqqoslashda 13,9 foizga o'sgan.

Tadqiqot davomida savdo xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligini faqat savdo hajmining o'sishi orqali baholash yetarli emasligi aniqlandi. Raqamlashtirishning haqiqiy samarasi operatsion xarajatlarning maqbullashishi, mehnat unumdorligining oshishi, raqamli savdo ulushining kengayishi, mijozlar bazasining barqaror o'sishi, investitsiyalar rentabelligi va foydaning ko'payishi kabi ko'rsatkichlarning kompleks o'zgarishi orqali namoyon bo'ladi.

Shu asosda maqolada savdo xizmatlarini raqamlashtirish samaradorligini baholash uchun Integral raqamli samaradorlik indeksi (IRSI) taklif etildi. Ushbu indeks moliyaviy, xarajat, mehnat, bozor va mijozlar samaradorligini yagona tizimga birlashtirish imkonini beradi.

Taklif etilgan metodikaning muhim jihati shundaki, u raqamlashtirishga yo'naltirilgan investitsiyaning faqat yakuniy moliyaviy natijasini emas, balki ushbu investitsiyaning korxonaning ichki biznes jarayonlari va bozor faoliyatiga ijobiy ta'sirini ham to'liq hisobga oladi. Natijada savdo korxonalarining raqamli transformatsiyasi bo'yicha qarorlarni yanada asosli va puxta qabul qilish imkoniyati yaratiladi.

Raqamlashtirishning ahamiyati savdo xizmatlarining umumiy xizmatlar bozoridagi yuqori ulushi bilan ham izohlanadi. 2026-yil yanvar–aprel oylarida O'zbekistonda savdo xizmatlari 101,8 trln so'mni tashkil etib, bozor xizmatlarining eng yirik yo'nalishlaridan biri bo'lgan. Shu sababli savdo jarayonlarini raqamlashtirishdan olinadigan samaradorlik butun xizmatlar sektorining iqtisodiy natijalariga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, savdo xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Savdo korxonalarida IRSI ko'rsatkichini joriy etish. Savdo korxonalarining raqamlashtirish darajasini muntazam baholash uchun Integral raqamli samaradorlik indeksidan foydalanish va uning dinamikasini yillik monitoring qilish maqsadga muvofiq.

Raqamli investitsiyalarni ROI asosida rejalashtirish. Har bir yangi raqamli platforma, CRM, ERP, *marketplace* yoki avtomatlashtirish loyihasi bo'yicha investitsiyaning kutilayotgan rentabelligi va qoplanish muddatini oldindan aniq hisoblash lozim.

Raqamli savdo kanallarini diversifikatsiya qilish. Savdo korxonalari faqat bitta platformaga bog'lanib qolmasdan, o'z internet-do'koni, mobil ilovasi, *marketplace* va ijtimoiy tarmoqlardagi savdo kanallaridan kompleks foydalanishi dardkor.

Raqamli to'lov va buyurtma tizimlarini integratsiyalash. Buyurtma, to'lov, ombor va yetkazib berish tizimlarini yagona raqamli muhitga birlashtirish operatsion xarajatlarni kamaytirish hamda buyurtmalarni qayta ishlash tezligini oshirishga xizmat qiladi.

CRM va ma'lumotlar tahlilidan foydalanishni kengaytirish. Mijozlarning xarid qilish chastotasi, o'rtacha chek miqdori va takroriy xaridlarini tahlil qilish orqali individual marketing strategiyalarini ishlab chiqish zarur.

Raqamlashtirishning mehnat unumdorligiga ta'sirini alohida monitoring qilish. Savdo hajmining xodimlar soniga nisbati muntazam tahlil qilinib, avtomatlashtirish natijasida yaratilgan mehnat samaradorligi aniqlanishi lozim.

Hududlar bo'yicha raqamli savdo infratuzilmasini rivojlantirish. Raqamli savdo imkoniyatlarini faqat yirik shaharlarda emas, balki viloyat, tuman va qishloq hududlarida ham kengaytirish zarur. Bu savdo xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini hududiy jihatdan tenglashtirishga yordam beradi.



Raqamli savdo va logistika tizimlarini o'zaro bog'lash. Elektron buyurtmalarni avtomatik qayta ishlash, ombor qoldiqlarini real vaqt rejimida nazorat qilish va yetkazib berishni raqamli boshqarish orqali mahsulot aylanish tezligini oshirish mumkin.

Kichik biznes subyektlarining raqamlashtirishini rag'batlantirish. Kichik savdo korxonalariga tayyor raqamli platformalar, elektron to'lov, CRM va buxgalteriya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish raqamli transformatsiya xarajatlarini maqbullashtiradi.

Raqamlashtirish samaradorligini muntazam statistik monitoring qilish. Savdo xizmatlari bo'yicha mavjud rasmiy statistik kuzatuvlarni raqamli savdo ulushi, elektron tijorat hajmi, raqamli to'lovlar va raqamlashtirish investitsiyalari kabi indikatorlar bilan kengaytirish maqsadga muvofiq. Milliy statistika qo'mitasi savdo xizmatlari hajmi bo'yicha yillik rasmiy statistik ma'lumotlarni alohida yuritmoqda.

Umuman olganda, savdo xizmatlarini raqamlashtirishda asosiy maqsad raqamli texnologiyalar sonini shunchaki ko'paytirish emas, balki ulardan foydalanish natijasida yaratiladigan iqtisodiy qiymatni oshirishdan iboratdir. Shu jihatdan, taklif etilgan IRSI metodikasi savdo korxonalarining raqamli transformatsiyasini iqtisodiy jihatdan baholash, investitsion jarayonlarni optimallashtirish va istiqboldagi raqamlashtirish strategiyasini ilmiy asoslash uchun amaliy va samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. OECD. The Digital Transformation of SMEs. – Paris: OECD Publishing, 2021. – URL: https://www.oecd.org/en/publications/the-digital-transformation-of-smes_bdb9256a-en/full-report.html
2. OECD. SME Digitalisation to Manage Shocks and Transitions: 2024 OECD D4SME Survey. – Paris: OECD Publishing, 2024. – 61 p. – DOI: 10.1787/eb4ec9ac-en.
3. OECD. SMEs in the Online Platform Economy // The Digital Transformation of SMEs. – Paris: OECD Publishing, 2021. – URL: https://www.oecd.org/en/publications/the-digital-transformation-of-smes_bdb9256a-en/full-report/component-7.html
4. OECD. OECD Digital Economy Outlook 2024. Volume 1: Embracing the Technology Frontier. – Paris: OECD Publishing, 2024. – URL: https://www.oecd.org/en/publications/2024/05/oecd-digital-economy-outlook-2024-volume-1_d30a04c9/full-report/component-7.html
5. Bianchini M., Lasheras Sancho M. SME Digitalisation for Competitiveness: The 2025 OECD D4SME Survey. – Paris: OECD Publishing, 2025. – 31 p. – DOI: 10.1787/197e3077-en.
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Elektron tijorat savdo hajmi (yillik). – Toshkent, 2025. – SIAT ma'lumotlar bazasi. – URL: <https://siat.stat.uz/data/2833/?lang=uz>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–6079-son Farmoni. – 2020-yil 5-oktabr. – URL: <https://lex.uz/docs/-5030957>
8. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RQ–792-son Qonuni. – 2022-yil 29-sentabr. – URL: <https://lex.uz/docs/-6213382>
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 885-son Qarori. – 2024-yil 26-dekabr. – URL: <https://lex.uz/docs/-7282643>
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Raqamli iqtisodiyot: axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar. – Toshkent, 2026. – URL: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>